

PEDAGOGIK JARAYONDA INNOVATSION TALIM TEXNOLOGIYALARINI SAMARALI QO`LLASH

Yorqulova Nargiza Navro`z qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda fanni o`qitishda foydalaniladigan interfaol ta`lim metodlari, keys topshiriqlarini bajarish, mavzuga oid darajali testlarni yechish, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilishda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish va zamonaviy ta`lim dasturlarini o`quv jarayonida qo`llay olish faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: innovatsion texnologiyalar, modernizatsiya, texnologiya, innovatsion jarayon, interfaol metodlar pedagogik texnologiyalar, uslub, natija, jamoa, yangi axborotlar.

KIRISH

Hozirgi boshlang`ich ta`lim tizimida takroriylikka chek qo`yilgan va zamonaviy ta`lim tizimi amalda. Hozirgi vaqtda ta`lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta`lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Zamonaviy o`qituvchi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ`ibotchisidir.

Taraqqiyotning ijtimoiy va ilmiy tarzda barqaror rivojlanishi uchun ta`lim tizimi yuqori sifatda bo`lishi lozim. Ta`limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o`qitishni ta`minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta`lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat. Ta`lim muassasasi o`sib kelayotgan shaxsni o`qitish jarayonida ularga ta`lim olish sharoitlarini yaratadi. O`quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo`naltirilgan bo`lishi o`qituvchi faoliyatining mas`uliyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda ta`lim tizimining yuqori sur`atlarda o`sishi pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi bilan bog`liq. Bugungi kunda ta`limning vazifasi o`quvchilarni axborot ta`lim muhitida mustaqil o`qish, izlanish, oqilona fikrlash va foydalanishni o`z ichiga oladi. Ta`lim tizimining modernizatsiyasi- jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta`lim olish bo`lgan talabini qondirish, ta`lim tizimini barqaror rivojlanishini ta`minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab

chiqilishi yoki takomillashtirilishi. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar sanaladi.:

- elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish;
- o'qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o'zaro muvofiqlashtirish;
- o'quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarini vujudga keltirish.

Boshlang'ich sinflarga ta'lim – tarbiya berishning maqsadi ilm-fan, ilg'or va innovatsion texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanishga qaratilib, bugungi zamonaviy ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan dolzarb muammolardan biridir. O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar va o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. O'quvchilar bunda o'z shaxsiy fikrlariga, tanqidiy-tahliliy va ijobiy-ijodiy fikrlarga ega bo'ladilar. O'qitishning metodik usluvi o'quvchiga nafaqat fikr bildirish balki elektron resurslar va raqamli texnologiyalar bilan ishlashni ham o'rgatadi.

Pedagogik texnologiya- ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalardan o'zlashtirishning barcha jarayonini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi xarakterlari vositasida yaratish, tadbqiq etish va aniqlashning izchil metodi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ega: bir butunlik, yaxlitlik, asosiylik, madaniyatni anglash, o'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish, ta'limning uzluksizligi kabi tamoyillarga ega. Ushbu tamoyillar dars jarayonida qanday qo'l kelishi mumkin? Har bir fan yuzasidan axborotlarga ega bo'lish, mustaqil bilim olish, bilimlarni kengaytirib borish, tafakkurning yuzaga kelishi, xotiraning kuchayishi, kompyuter va multimedia vositalari asosida elektron ta'lim olish, ijtimoiy hayotga moslashish yo'nalishlarida qo'l keladi. O'qitib tadqiq qilish asosan 2 jihatni yoritadi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasida tadqiqotlarni olib borishi; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotga sinab ko'radi, kuzatadi, tuzatishlar kiritadi, ta'lim jarayonini tadqiq qiladi. O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchisining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga, o'quvchilarning fikrlash doirasini oshirishga zamin yaratadi.

Pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta tayyorlangan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'tmish allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalanish o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida pedagogik

texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligi bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashpedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin. Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi.

NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya'ni ta'lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi. Ushbu usullar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli va bilimli fikrlashini, mantiqiy bilimiga ega bo'lishlarini oshiradi. Pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni ,texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda subektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

Amaliyot davomida maktab o'quvchilariga dars jarayonida turli metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida mazmunli darslar tashkil etilganiga guvoh bo'ldik. Zamonaviy ta'lim tizimiga ko'ra har bir dars innovatsion va integratsion muhitga asoslangan, yangicha yondashuvdagi darslar bo'ldi. Darslar qachonki aniq maqsad, tizimlilik, ijtimoiy g'oyaga asoslangan bo'lsagina ma'naviy axloqiy sifatlarni o'zida jamlagan yangicha samarali dars bo'la oladi. Innovatsion darslarning eng yaxshi ko'rinishlari nafaqat o'quvchiga balki o'qituvchiga ham yangi g'oya, aniq maqsad, noanaviy yondashuv, tashabbuslarni beradi. Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innivatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

MUHOKAMA

O'quv jarayonini qiziqarli tashkil etish, unda ishlatiladigan interfaol uslub va pedagogik texnologiyalarning samarasi o'quv xonasining qay darajada jihozlanishiga, o'quvchilarning yoshi va fikrlashiga darsning pedagogik jihatdan tashkil etilishiga bog'liq. Shuning uchun o'qitish texnologiyalaridan darslarda foydalanish, o'quv xonalarining jihozlarini maxsus ko'rinishga olib kelish, o'quvchilarning xonada erkin harakat qilishlari, fikr bildirishlari, hamkorlikda ishlashlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion muhit darslarni yodga olishda, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z -o'zini baholashga o'rgatishda, matnlar bilan ishlash, qisqa vaqt ichida ko'p

ma'lumotga ega bo'lishda, vaziyatni to'g'ri baholash va tezlik bilan kerakli yechimni topishga, nutqiy faoliyatni o'stirishga, kunning rejalashtirishga, ochiq holda bahslashishga, xotiralarning rivojlanishiga, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda bayon qilishga, mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini charxlab olishga, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda, pedagogik yangiliklarning ko'payishida, yangicha tafakkurning yuzaga kelishida, ilg'or yangiliklarni amalga oshirishda, informatsion ko'nikmalarning yuzaga kelishida, noan'anaviy ta'limning samarali qo'llanilishida, xalqaro baholash dasturlarida o'z samarasini ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar boshlang'ich sinflarda darslarni pedagogik jihatdan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning yangicha va samarali usullarini ochib beradi. Foydalanuvchilar bu tavsiyalar asosida o'zlarining dars muhitlarini yaratishlari, ulardan samarali foydalanishlari, mustaqil fikrlashni shakllantirish, qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratishlari lozim. Ushbu aytilgan fikrlar va tavsiyalarning samarali, natijali bo'lishi ko'p jihatdan uning ijrochilari, shuningdek, ularning pedagogik mahoratlari hamda madaniyatlariga bog'liq. Agar yangicha innovatsion texnologiyalar asosida darslar tashkil etilsa ta'lim samaradorligi tez sur'atlarda oshadi, ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ladi, sifatli ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijaga erishishda o'z samarasini ko'rsatadi. O'qituvchining ushbu faoliyat jarayoni pedagogik jamoani xarakterga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar, Toshkent – 2008
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T-Sharq- 1998
3. Yo'ldoshev J, Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari, muammolari, yechimlari, Xalq ta'limi -1999
4. Yo'ldoshev J, Usmonov S, Pedagogik texnologiya asoslari, T,2001
5. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T: Moliya, 2003
7. Tolipov U, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.- T:2006
8. O'quv-uslubiy majmua. Ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. Samarqand-2019